

**YANGI TAHRIRDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KONSTITUTSIYASIDA FUQAROLARNING SHAXSIY HUQUQ VA  
ERKINLIKLARINING JAFOLATLANISHI VA „MIRANDA QOIDASI”.**

**Tuxtamurodov Firdavs Baxrom o'g'li**

*Jahon Iqtisodiyot va Diplomatika Universiteti*

*„Yurisprudensiya” yo'nalish I kurs talabasi*

E-mail: [tukhtamurodovfirdavs059@gmail.com](mailto:tukhtamurodovfirdavs059@gmail.com)

**Umarov Ramziddin Faxriddin o'g'li**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

*"Yurisprudensiya" yo'nalishi I kurs talabasi.*

E-mail: [ramzumarov04@gmail.com](mailto:ramzumarov04@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yurtimizda yashab istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari ularning burchlari shuningdek ularga hozirda berilayotgan imkoniyatlar, shu bilan birgalikda amaldagi qonunlarning ijtimoiy hayotimizda qay tarzda amal qilinayotgani va fuqarolarning ularga nisatan munosabati bilan birgalikda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar, muammolar va ularga berilgan oqilona yechimlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, imkoniyatlar.

**Аннотация.** В этой статье рассматриваются права и свободы всех молодых людей, живущих в нашей стране, их обязанности, а также возможности, которые в настоящее время им предоставляются, в то же время, вместе с тем, каким образом действующие законы реализуются в нашей общественной жизни и отношение граждан к ним, информация о внесении изменений в Конституцию Республики Узбекистан в новой редакции, представлена информация о проблемах и предлагаемых для них разумных решениях.

**Ключевы слова:** права и свободы всех молодых людей, Конституцию Республики Узбекистан, Возможности.

**Annotation:** In this article, the rights and freedoms of all young people living in our country, their duties as well as the opportunities that are currently given to them, at the same time, together with the ways in which the current laws are implemented in our social life and the attitude of citizens towards them, information about amendments in the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the new edition, information about problems and reasonable solutions given to them are presented.

**Key words:** The rights and freedoms of all young people, the Constitution of the Republic of the Uzbekistan, Opportunities.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning barcha huquq va erkinlari kafolatlangan bo'lib u 6 bo'lim 27 bob 155 moddadan iboratdir unda har bir O'zbekiston

fuqarosining huquq va erkinliklari mustahkamlanib ularning erkin va barkamol hayot kechirishlari uchun belgilangan normalari keltirilgandir. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2 – bo'limi Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari va burchlari deb nomlanib uning 7 bobi fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklariga ta'luqlidir, aynan ushbu bob 25 - moddadan 35 moddagacha o'z ichiga oladi. Ushbu moddalarda fuqarolarning ajralmas huquqi bo'lmish yashash huquqi, uni davlat tomonidan to'laqonli ravishda muhofaza etilishi, inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekanligi shuningdek O'zbekistonda insonparvarlik prinsipini asosiy o'rinda ekanligini mustahkamlab qo'yuvchi normani ya'ni o'lim jazosi ta'qiqlanganligi 25 moddada belgilab qo'yilgan. Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, yurtimizda o'lim jazosi 2008 yil 1 yanvarda bekor qilingan, uning asosiy maqsadi fuqarlarning yashash huquqi va uning qadri bosh o'rinda turishini normada mustahkamlash edi. O'lim jazosi eng og'ir jinoiy jazo bo'lib, u qo'llaniladigan deyarli barcha davlatlarda o'ta og'ir, inson hayotiga qasd qiladigan jinoyatlar uchungina ko'zda tutilgan edi. Mening fikrimcha ham o'lim jazosini qo'lash kerak emas, chunki joni berguvchi ham olguvchi ham ALLAHdur, shu sababli birovning umrini o'lchash unga o'lim jazosini berish masalasini o'ziga topshirganimiz maqul.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022 yil 20 iyundagi Konstitutsiyaviy komissiya bilan uchrashuvda Konstitutsiyamizga „O'zbekistonda o'lim jazosi ta'qiqlanadi“ degan yana bir muhim normani kiritishni taklif qildi va yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni 25-moddasida ushbu norma qat'iy mustahkamlanib qo'yildi. Shu tariqa davlatimiz bu nihoyatda jiddiy masala ekanligini va boshqa bu masalaga qaytmasligini, insonparvarlik g'oyalariga sodiq ekanligini butun dunyoga namoyon qilmoqda. Tarixga nazar solsak, 1994 yildagi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida 33 turdagi jinoyat uchun o'lim jazosi belgilanganini ko'ramiz. Misol uchun: 1994 yildagi O'zbekiston Jinoyat kodeksining 97-Moddasi (Davlat tuzumiga qarshi jinoyatlar) Bu modda davlatni ag'darishga urinish, davlatga qarshi suiqasdlar va boshqa davlat tuzumiga qarshi jinoyatlar uchun o'lim jazosi belgilangan edi. O'lim jazosi davlatga qarshi qilingan har qanday jiddiy jinoyatlar uchun qo'llanilgan, 98-Moddasi (O'limga olib keladigan jinoyatlar) – Agar jinoyat odamlarning ommaviy o'limiga sabab bo'lsa, o'lim jazosi belgilangan edi. Masalan, ommaviy qotillik yoki bir nechta kishining hayotiga ziyon yetkazish., 111 Moddasi. (Suiqasd) – Prezidentga, davlat va uning vakillariga qarshi qilingan suiqasdlar uchun ham o'lim jazosi belgilangan. O'lim jazosi belgilangan normalar bosqichma bosqich qisqartirilib, 2008 yil 1 yanvardan o'lim jazosi jinoiy jazo sifatida batamom bekor qilindi va bu sanksiya umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan almashtirildi. O'zbekistonda o'lim jazosini bekor qilinishi va ta'qiqlanishi BMT ning 1966 yil 16 dekabrda qabul qilingan „Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt“ talablariga ham to'liq javob bera oladi.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda yuqori sudlar tomonidan avval chiqarilgan ko'plab hukmlar qayta ko'rilib, oqlov hukmlari chiqarimoqda. Demak, sudlar ham xatolarga yo'l qo'yishi mumkinligi xavfini inkor etib bo'lmaydi. Shunday ekan, O'lim jazosi tayinlangan shaxsga sud kelgusida oqlov hukmi chiqaradigan bo'lsa, nohaq ayblangan



inson hayotini ortga qaytarishning hech qanday imkoni yo'q . Bugungi kunda 106 davlatda xusussan Kanada , Argentina , Daniya , Fransiya , Italiya , Norvegiya va boshqa davlatlarda o'lim jazosi barcha jinoyatlar uchun bekor qilingan . Ushbu normani Konstitutsiyaga mustahkamlash orqali davlatimiz qanchalik insonparvarlik g'oyalariga o'z sodiqligini namoyon etadi, shuningdek ijtimoiy-siyosiy hayotimizda o'lim jazosini qaytarish esa har qanday tashabbuslarga barham berilishini asosiy sifatda mustahkamlaydi.

Shu bilan birgalikda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yangicha qoida, yangi norma kiritilgani ham fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday normalarga bir nechtasini misol qilsak bo'ladi: OZB RES Konstitutsiyasining 28-moddasi 5-bandida shunday bir norma keltirilgan bo'lib " Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas" ushbu norma konstitutsiyamizga qo'shilgan eng yaxshi bir normalar deb aytaloman, yo bo'lmasa, qarindoshlarning sudlanganlik holatlari boshqa qarindoshlarga, oila azolariga, ishga kirishda va boshqa turli hil vazifalarni bajarishda halqit bermasligi. Shuningdek Shaxsni ushlab turish chog'ida unga huquqlari va ushlab turilish asoslarining tushuntirilishi xalqaro huquqida umumetirof etilgan norma bo'lib ,surishtiruv ,tergov va sud jarayonlarida qonun buzilishiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega . Shu ma'noda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 27 moddasida „Shaxsni ushlab turish chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turish asoslari tushuntirilishi shart deb belgilandi. „Miranda qoidasi o'z tarixiga ega hisblanib 1966 yilda jinoyat sodir etgan E.Mirandani hibsga olgan AQSH Arizona shtati politsiyasi uni so'roq qilishdan avval gumon qiluvchi sifatida huquqlari tushuntirmaganligi tufayli keyinchalik uning aybiga iqrorligi to'g'risidagi ko'rsatmasi asosida chiqarilgan hukm AQSH oliy sudida bekor qilingan .Bu qoidaga muvofiq shaxsni ushlab turish chog'ida uning huquqlari ,ushlab turish asoslari tushuntirilishi,ayblanuvchi ayblovning mohiyati va asoslarini bilishi va undan xabardor bo'lgan holda yuridik xizmatdan foydalanishi kerak hisoblanadi.Ayrim hollarda , ushlangan shaxs o'z huquqlarini bilmagan sharoitda tergov organlari tomonidan aybga iqrorlik ko'rsatmalari berishga majburlanishi xavfi mavjud . Aynan protsessual ushlab turish vaqtida inson og'ir ruhiy holatga tushadi va huquqiy yordamga muhtojdir chunki bunday murakkab vaziyat jinoyatda aybdor yoki aybszligini isbotlash majburiyati unga emas, aksincha tergov organlariga to'liq yuklatilganligini anglay olmaydi . Bu esa bir qator insonlarning huquqlarini cheklanishiga olib keladi bu esa kelgusida qonunni to'la ishlamasligiga shuningdek fuqarolarning o'z shaxsiy huquqlaridan bexabar bo'lish oqibatida kelgusi hayotida chigal vaziyatlar bo'lishini ta'minlaydi .

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam ,har bir fuqaro o'z huquq va erkinlarini to'laqonli anglashi, konstitutsiyaviy huquqlaridan to'laqonli foydalanishi va bu orqali haqiqiy demokratik davlatda erkin va farovon yashashiga ishonch hosil qila olishi kerak .Buning uchun esa fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati shakllanishida chiqarilayotgan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlarning ahamiyatini bilishi va davlat organlari va mansabdor shaxslari bilan ochiq muloqotga kirisha olishi lozim .

**Foydalanilgan dabiyotlar:**

1. Yangilanayotgan Konstitutsiyad 100 savolga 100 javob kitobi
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. 1994 yildagi O'zbekiston Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>

